



IT SOHASINI KENG OMMAGA TARG'IB QILISH

Ozodov Ozodbek Tojiboy o'g'li

Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti Urganch Filiali talabasi

Annotatsiya: Yoshlarning o'z ilmiy va ijodiy salohiyatini oshirishi, intellektual bilimini namoyon qilishi, tahliliy fikrlashi, iqtidori va ijtimoiy moslashuvi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, yoshlar bandligini ta'minlashda IT markazlar va "Bir million dasturchi" loyihasi katta samara beryapti.

Kalit so'zlar: IT, innovatsiya, kelajak sohasi, It park, It markaz va h.k.z

Zamon rivojlanib borishi IT sohasining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq bo'lib ushbu sohani rivojlantirish orqali juda ko'p muammolarga yechim toppish mumkin bo'ladi. Shuningdek insonlarning mehnatini ham ancha yengillashtiradi. Shu yilning 13-aprel kuni Prezidentimiz raisligida yoshlar bandligi va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha ilgari berilgan topshiriqlar ijrosi yuzasidan o'tkazilgan video selektor yig'ilishida ta'kidlaganidek, bugungi kunda respublika bo'yicha 120 ta IT markazni to'rt mingga yaqin "Yoshlar daftari"ga kirganlar tamomlagan. Kelgusida biznes boshlashi uchun bunday yigit-qizlar kompyuter bilan ta'milanadi. Buning uchun "Bir million dasturchi" loyihasi doirasida sertifikat olgan yoshlarga kompyuter xaridi uchun kreditlar ajratiladi. Ularning foiz xarajatlari to'liq byudjetdan qoplab beriladi.

2019-yil 20-noyabrda davlatimiz rahbari yangi bosqich qurilishiga ramziy tamal toshi qo'ygan va Toshkentda mamlakatimizdagi birinchi Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki ochilgandi. Shundan buyon o'tgan davr mobaynida axborot texnologiyalari sohasida o'nlab yangi loyihalar yo'lga qo'yildi. Yoshlarning sohaga oid qiziqish va intilishlarini rag'batlantirish, aholining kompyuter savodxonligini oshirish borasida sezilarli qadamlar tashlandi.

"Iqtisodiyotimiz barqarorligi, har bir sohaning sifati va samaradorligi, aholiga qulayliklar yaratish axborot texnologiyalari bilan bog'liq. Shuning uchun bu sohaga yanada keng imkoniyat, zarur infratuzilma yaratish, mutaxassislarni har tomonlama rag'batlantirish, qobiliyatli yoshlarni tarbiyalash kerak", degan edi Prezidentimiz.

IT parklar esa mana shunday maqsadlarni o'zida mujassam etib, o'qish va istiqbolli loyihalar ustida ishslash, dasturiy mahsulotlar bozoriga chiqishga ko'maklashish, sohaga ilg'or yoshlarni keng jalb qilish, ularni yuksak salohiyatli qilib tarbiyalash

uchun zamonaviy makon vazifasini o'tayotir. Bugungi kunda buyerda minglab startaplar ustida ishlanyapti, millionlab dasturchilar tayyorlanyapti. Jumladan, "Bir million dasturchi" (One million uzbek coders) loyihasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi va Birlashgan Arab Amirliklarining "Dubai Future Foundation" jamg'armasi tomonidan Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi hamda Xalq ta'limi vazirligi bilan hamkorlikda amalga oshirilmoqda.

Mart oyining yakuniy holati bo'yicha respublika miqyosida uzbekcoders.uz portalni orqali ro'yxatdan o'tib, "Bir million dasturchi" loyihasi doirasida ta'lim olayotganlar soni 200 ming nafardan ziyodni tashkil etdi. Yaqinda "Bir million dasturchi" loyihasi doirasida bitiruvchilar salmog'i bo'yicha yuqori natijalarni ko'rsatgan Karmana tumanidagi 2-maktab hamda Qo'ng'iroq tumanidagi 39-maktabga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sovg'asi — "Spark" avtomobili topshirildi. Aytish joizki, dasturiy mahsulot va raqamli xizmatlarni taqdim etish uchun qulay shart-sharoit yaratish, ularni ichki hamda tashqi bozorga olib chiqish, innovatsion ishlanmalarni rag'batlantirish axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishning muhim shartlaridan biridir. Shu ma'noda, O'zbekiston Hindistonning axborot va texnologiya kompaniyalarini bilan birqalikda dasturiy ta'minotni ishlab chiqish, startaplarni jadallashtirish bo'yicha qator loyihalarni yo'lga qo'ydi.

Mamlakatimiz bo'ylab besh tashabbus doirasida 120 ta raqamli texnologiyalar o'quv markazi faoliyat boshladi. Hozir IT sohasi bo'yicha uchta texnikum faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, ularda yetti yuzga yaqin yigit-qiz ta'lim olmoqda. Yangi o'quv yiliga qadar qolgan hududlarda ham 11 ta texnikum tashkil etish rejalashtirilmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, axborot kommunikatsiya texnologiyalarini sohasi bo'yicha mamlakatimizda yiliga o'rtacha besh ming nafardan ortiq oliy ma'lumotli kadr yetishib chiqadi. Shundan 3 ming 300 nafari Toshkent axborot texnologiyalari universiteti hissasiga to'g'ri kelmoqda. O'tgan yili Andijon, Farg'ona, Sirdaryo, Jizzax, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarida Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarini texnologik parki filiallari tashkil etildi. Ularda faoliyat yuritayotgan 440 dan ziyod rezident tomonidan mingga yaqin yangi ish o'rni tashkil etildi. Ishlab chiqarilayotgan dasturiy mahsulot va xizmatlar hajmi bir trillion so'mlikdan ortdi.

Ayni paytda Toshkent shahridagi Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarini texnologik parki rezidentlarini ko'paytirish va ularga yetarli imkoniyatlar yaratish vazirlilik diqqat markazida turibdi. Shu maqsadda xorijdan jalb qilingan ekspert bilan

hamkorlikda umumiy maydoni 408 ming kvadrat metrga teng hududda infratuzilma obyektlarini buniyod etish konsepsiysi ishlab chiqilib, qurilish ishlari bajarilmoqda. Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parkida rezidentlarga moliyaviy, marketing, yuridik va boshqa konsalting xizmatlar ko‘rsatiladi. Ular uchun moliyaviy imtiyozlar ko‘zda tutilgan. Jumladan, 2028-yilning 1-yanvariga qadar barcha soliq va davlatning maqsadli jamg‘armalariga majburiy ajratmalardan, shuningdek, bir martalik ijtimoiy to‘lovlardan ozod qilingan. Taqdim qilingan imtiyozlar va preferensiyalar tufayli xizmatlar va eksport hajmi yildan-yilga oshyapti. Natijada IT park rezidentlari dunyo bozoriga chiqib, o‘z xizmatlarini xorijiy kompaniyalarga taklif etmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasi bugungi kunda eng talab yuqori va ustuvor sohalardan biri hisoblanadi. Startaplardan tortib, eng yirik kompaniyalargacha yaxshi IT mutaxassisiga ehtiyoj sezadi. Shu tufayli ham ushbu soha egalariga talab juda baland. Tadbirkorlar, kompaniya hamda tashkilotlar malakali xodim uchun yuqori maosh to‘lashga doimo tayyor. Respublikamizda bunday markazlar ochilayotgani ham bejiz emas. Bu har bir inson o‘qib o‘rganishi, IT dunyosiga qo‘shilishi uchun amalga oshirilmoqda.

Shu qatori, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki tomonidan mobil robototexnika bo‘yicha milliy terma jamoa shakllantirish jarayoni boshlandi. Park filiallarida startap loyihalarni amalga oshirish, yoshlarni dasturiy mahsulotlar ishlab chiqarishga keng jalb qilish bo‘yicha tizimli ishlar bajarilmoqda. Jumladan, axborot- kommunikatsiya texnologiyalariga qiziqishi baland va u bilan shug‘ullanish niyatidagi yigit-qizlar uchun qator qulayliklar mavjud. Jumladan, 2021-yildan boshlab xalqaro IT sertifikatini qo‘lga kiritgan yoshlarga xarajatining 50 foizigacha bo‘lgan qismi qoplab beriladi. Texnika va kommunikatsiya asrida insonlarning dunyoqarashi, fikri kun sayin o‘zgarib bormoqda. Bugungi kunda ularni hayratlantirish, turmush tarzini butkul o‘zgartirib yubora oladigan loyihalarni ishlab chiqish ham qiyinlashyapti. Buning asosiy sabablaridan biri, ularning zamonaviy axborot- kommunikatsiya texnologiyalaridan faol foydalanishi, dunyoda ro‘y berayotgan yangiliklar, voqeahodisalardan tez xabardor bo‘lishidir. Shunga ko‘ra, sohada yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularda ijodkorlik, kreativlikni yanada rivojlantirish maqsadida yangi loyihalar ishlab chiqilmoqda. Bu loyihalar ularning iste’dodi, ixtirolari hamda g‘oyalalarini hayotga tatbiq etishda muhim rol o‘ynaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Fundamentals of Library and Informational science, by ABDUWAHAB OLANREWAJU ISSA, Ph.D in 2013, pages – 133.
2. Harris, M.H. History of Libraries in the Western World, 4th ed. (Scarecrow, 2011)
3. http://en.wikipedia.org/wiki/Library_science
4. <http://WWW.rocket-library.com/>)